


IX 9Belgilar

**Ayollar mahalliy
jamoatda qanday qilib
ruhan o'sishlari mumkin?**



**Keri
Folmar**

Jamoatga Doir Savollar

Jamoatga doir savollar to'plami haqidagi ijobiy fikrlar

“Masihiylar juda jiddiy savollarga duch kelishadi. Muqaddas Bitiklar qanday qilib jamoatni barpo etadi, sajdani tartibga keltiradi, xizmatni tashkil qiladi va kalomdagi yo'lboschchilikni ta'riflaydi? Bu “9Belgilar”ga tegishli ushbu yangi to'plamda aniq, diqqat bilan va qiziqarli tarzda javob berilgan savollardan bir nechta misollaridir. Men bu xizmat uchun va uning ko'plab sodiq jamoatlarga favqulodda sog'lom va umid beruvchi ta'siri uchun minnatdorman. Bu to'plamni bajonidil tavsiya qilaman.”

R. Albert Moller (R. Albert Mohler Jr.,)
Janubiy baptist ilohiyot seminariyasi prezidenti

“Samimiy savollar mulohaza bilan javob berishga arziydi. Agar siz bu savollarga javob berishni nimadan boshlashni bilmasangiz, bu to'plam hovuzga sakrash uchun tramplin sifatida sizga xizmat qilsin. Bu kichik kitoblar qiziqarli darajada maqsadli va bitta do'st yoki yuzlab do'stlar bilan birga o'qish uchun ajoyib tarzda mos keladi.”

Gloriya Furman (Gloria Furman),
*Vazifaga ega onalik xizmati va
Cho'ponning xotini kitoblari muallifi*

“Cho’pon sifatida menga ko’p savollar berishadi. Menga xushxabarni tushunishni istayotgan imonsizlar, endi hayotida nima qilishni bilmayotgan yangi imonlilar hamda imonli oila a’zolari, qarindoshlari, do’stlari, qo’shnilar va hamkasblari savollariga javob olishni istayotgan yetuklikka intilayotgan imonilar murojaat qilishadi. Aynan shunday paytlarda ularning savollariga qisqacha javob bera oladigan va keyingi o’rganish uchun to’g’ri yo’nalish ko’rsata oladigan kitobim bo’lishini istardim. Jamoatga doir savollar to’plami ana shu imkoniyatni taqdim qiladi. Har bir risolada keltirilgan masala kalomga asoslangan, ixcham va amaliy tarzda yoritilgan. To’plam Jamoat savollari deb nomlansa bo’ladi, lekin u “Jamoat javoblari” deb atalishi ham mumkin edi. Men muntazam ravishda ularning bir nechtasini tanlab, boshqalar bilan bo’lishishmoqchiman. Sizga ham shunday qilishni tavsiya qilaman.”

Xuan R. Sanches (Juan R. Sanchez),
“High Pointe” nomli baptist
jamoatida katta cho’pon,
Austin shahri, Texas

“Biz, masihiyalar qalin va qimmat kitoblarni varaqlamasdan turib, jamoatdagi masihiy hayot haqida umumiylar savollarimizga ishonchli javoblarni qayerdan topa olamiz? Jamoatga doir savollar to’plami bizning ehtiyojlarimizni kalomga asoslangan, chuqur o’ylangan va amaliy bo’lgan javoblar bilan qondiradi. Cho’ponlar uchun bu to’plam jamoat a’zolarini chuqur donolik va mustahkam birlik sari yo’naltirish uchun ishonchli manba bo’lib xizmat qiladi.”

Rey Ortlund (Ray Ortlund),
Qayta tiklash xizmatlari prezidenti

**Ayollar mahalliy
jamoatda qanday
qilib ruhan
o'sishlari mumkin?**

Jamoatga Doir Savollar

Xudo hammani sevadimi?,

Matt Mak Kuloh

Menga ustozlik qiladigan odamni qanday topsam bo'ladi?,

J. Garrett Kell

*Muqaddas Kitobni o'qishdan qanday qilib ko'proq
zavqlana olaman?,*

Jeremy Kimbl

*Boshqacha siyosiy qarashga ega bo'lgan jamoat a'zolarini
qanday seva olaman?,*

Jonatan Liman va Andy Naselli

Jamoatimda qanday xizmat qilishim mumkin?,

Mettyu Emadi

*Jamoatimiz qanday qilib sadoqatli cho'ponni topa olishi
mumkin?,*

Mark Dever

*Ayollar mahalliy jamoatda qanday qilib ruhan o'sishlari
mumkin?,*

Keri Folmar

Jamoatdagi intizomiy chorani qo'llash sevgi amalimi?,

Jonatan Liman

Ibodat qilishni xohlamasam-chi?,

Jon Onvuchekva

Jamoatga borishni xohlamasam-chi?,

Gunner Gundersen

*Xushxabarchilik faoliyatimdan qoniqmasdan, umidsizlikka
tushsam-chi?,*

Isaac Adams

Hozir men masihiyman, nima qilishim kerak?,

Sam Emadi

Rabbimiz Kechligi nima uchun bu qadar muhim?,

Aubrey Sequeira

Nima uchun cho'mdirilishim kerak?,

Bobby Jamieson

Jamoatimga nima uchun qurbanlik berishim kerak?,

Jamie Dunlop

Nima uchun jamoatga qo'shilishim kerak?,

Mark Dever

Jamoatning vazifasi nima?,

Jonatan Liman

Men najotga erishganimga qanday amin bo'lismumkin?,

Jeremy Pierre

Ayol kishi cho'pon bo'lishi mumkinmi?,

Greg Gilbert

Jamoatga qatnamaydigan a'zolar borasida nima qilishimiz mumkin?,

Aleks Dyuk

Men xizmatga da'vat etilganmanmi?,

Brad Whiler

*Xalqaro elchilik xizmatini qanday
qo'llab-quvvatlashim mumkin?,*

Mark Kollins

Xushxabar sog'lik va farovonlik va'da qiladimi?,

Shon DiMars

Jamoatni kim boshqaradi?,

Sam Emadi

Diakonlar (xizmatchilar) nima qilishadi?,

Juan Sanchez

Men jamoatda nimani izlashim kerak?,

Aleks Dyuk

Do'zax haqqoniyimi?,

Deyn Ortlund

**Ayollar mahalliy
jamoatda qanday
qilib ruhan
o'sishlari mumkin?**

**Muallif:
Keri Folmar**



How Can Women Thrive in the Local Church?

Copyright © 2021 by Keri Folmar and 9Marks

Originally published in English by Crossway with all International rights owned by Crossway and 9Marks

525 A Street NE, Washington DC 20002

This edition published by arrangement with 9Marks.

All rights reserved. No part of this publication may be reproduced, stored in a retrieval system, or transmitted in any form by any means, electronic, mechanical, photocopy, recording, or otherwise, without the prior permission of the publisher, except as provided for by USA copyright law. Crossway® is a registered trademark in the United States of America.


Cover design: Jordan Singer

9Marks ISBN: 978-1-958168-82-0

“Zotan, badan bir a’zodan emas, balki ko’p
a’zolardan iborat. Oyoq: “Men qo’l emasman,
shuning uchun tanaga tegishli emasman” degani
bilan tanaga tegishli bo’lmay qolmaydi-ku!

Quloq ham: “Men ko’z emasman, shuning
uchun tanaga tegishli emasman” degani bilan
tanaga tegishli bo’lmay qolmaydi-ku! Axir, butun
tana ko’z bo’lsa, qanday qilib eshitadi? Agar
butun tana quloq bo’lsa, qanday qilib hidlay
oladi? Axir, Xudo tana a’zolarining har birini O’zi
xohlagan joyiga qo’ygan. Agar ularning hammasi
birgina a’zo bo’lganda, tana bo’larmidi?! Shunday
qilib, ta’na a’zolari ko’p, lekin tana birdir.”

1-Korinfliklar 12:14-20



Jamoatingizda ruhan o'syapsizmi? Ko'p yillar davomida jamoatdagi opa-singillarni shogirdlikka tayyorlab, ularga ruhiy maslahat bergenimda, bir qator ayollar o'z o'rnini topish va ruhan o'sishga qiynalayotganini guvohi bo'ldim. Dugonam Joan ayollar uchun mo'ljallangan Injil darslariga bajonidil qatnashardi, ammo dam olish kunlari juda bandligi sababli jamoatga borishga vaqt topolmasdi.¹ Eshli uchun yangi odamlar bilan uchrashish qiyin kechardi va bizning jamoatimizda o'zini begona kishidek his qilardi. Natasha uning qobiliyati va iste'dodlaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligidan xafa bo'lardi va u jamoat xizmatida qanday qatnashish mumkinligi haqida o'ylardi.

Sizda ham shunday holatlar kuzatilganmi?
Jamoatingizda o'sishga qiynalyapsizmi?

Ayol kishi sifatida bizda Xudoning ulug'vorligini namoyon qilishning betakror usullari bor. Ayol bo'lish - bu Xudoning in'omi, va U tomonidan taqdim etilgan vakolatdir. Biz Xudo Shohligi uchun muhim va zarurmiz. Ammo ayol bo'lish ham o'ziga xos mashaqqatlarga ega. Maktabdagi, ishdagi va uydagi majburiyatlar bizni o'z tomoniga tortarkan qanday qilib ruhan rivojlanishimiz mumkin?

Agar yuqoridagi holatlar sizda ham kuzatilgan bo'lsa unda, ushbu risola siz uchun. Mening maqsadim sizni Xushxabarda siz uchun mavjud bo'lgan Xudoning inoyatidan to'liq rohatlanishga va mahalliy jamoatda Xudoning xalqi bilan mazmunli, hayotbaxsh munosabatlarda bu rohatni his etishga undashdir. Men sizning rivojlanishingizni xohlayman. Aslini olib qaraganda, quyida tushuntirib bergenimdek, biz bu ikki narsani ajrata olmaymiz. Biz shunchaki jamoatdan tashqarida ruhan rivojlanolmaymiz.

Jamoatingiz mukammal emasligiga ishonchim komil – chunki u faqatgina inoyat orqali qutqarilgan gunohkorlardan iborat – va bu esa Xudoning ulug'vorligini ajoyib tarzda namoyon etadi. Masalan, jamoatdagi birodarlarining haqida o'ylab ko'ring. Mana qarang, Xudo bir birodaringizni mansab butparastligiga berilgan behuda hayotdan qutqardi. Jamoatdagi boshqa bir opa-singilni esa, dunyoviy munosabatda erishib bo'lmaydigan sevgi ortidan quvishdan xalos etdi.

Bu kabi ko'plab hikoyalarning bizga beradigan sabog'i kunday ravshan: "O'zining ko'p qirrali donoligi imonlilar jamoati orqali samoviy kuchlaru saltanatlarga ma'lum bo'lishi uchun Xudo shunday qildi" (Efesliklar 3:10). O'z O'g'lining Xushxabari orqali turli toifadagi odamlarni qutqarib, Xudo O'z donoligini nafaqat dunyoga, balki, hayratda kuzatsin deb, butun samoviy kuchlaru saltanatlarga namoyon etdi. Jamoat Xudoning ulug'vorligi uchun vositasidir, va agar biz ruhan rivojlanishni xohlasak u bizning manzilimizdir.

Opa-singillar, quyida jamoatda rivojlanishning sakkizta muhim yo'llari keltirib o'tilgan.

1. SIZ MASIHDА TIRIK BO'LISHINGIZ KERAK.

Yuliya jamoatda voyaga yetdi. Xudojo'y masihiy ota-onalari bo'lган boshqa bolalar kabi, u ham jamoatga sadoqat bilan qatnadi, yoshlar guruhiga a'zo bo'ldi va hatto har yili yozda jamoat lageriga ham borardi. Universitetga o'qishga kirganida, uyini eslatib turadigan jamoatni topdi, ammo o'sha jamoatga onda-sonda boradigan bo'lib qoldi. Mashg'ulotlarni to'laqonli bajaradigan a'luchi talaba sifatida, u dam olish kunlarini ziyofatlarda o'tkaza boshladidi. Jamoat, yangi tajribalar imkonini beradigan universitet kabi hayajonli emas edi - va bundan tashqari, bir necha kunlik ziyofatlardan so'ng, uyquga to'yishi uchun yakshanba kuni ertalab uqlab olar edi.

Yulianing bir masihiy do'sti, Yuliya o'zini masihiy deb atashi va uning hayot tarzi o'rtaсидаги farqni payqab qoldi. O'sha do'sti uni Kalomni o'rgatadigan va xushxabarni yaqqol

ochib beradigan jamoatga taklif qildi. Avvaliga, Yuliya va’zlardan zerikib qoldi, lekin keyinchalik Xudoning Kalomi uni fosh qila boshladi va uning hayoti haqidagi fikrini shakllantira boshladi. Vaqt o’tgan sari, u o’zini imonli deb ataganida, Muqaddas Kitobdag'i Xudoni bilmasligini tushundi. Do’stlari va cho’pon bilan suhbatlardan keyin u tavba qildi va Isoga ishondi.

O’sha daqiqadan boshlab, Yuliya uchun jamoat hayoti o’zgardi. Bu endi u do’stlar bilan uchrashib, maroqli vaqt o’tkazishlari mumkin bo’lgan ijtimoiy klub emas edi. Bu zarurat edi. U Xudoning so’ziga xuddi taomga muhtoj bo’laganidek, ehtiyojmand edi. U suvga tashna bo’lganidek, birodarlar yig’ilishiga chanqoq edi. Yuliya suvga cho’mib, jamoat a’zosiga aylandi va hattoki jamoatdag'i boshqa turmush qurmagan ayollar bilan bir uyga ko’chib o’tdi. Uning hayoti jamoat atrofida aylana boshladi va u ruhan gullab-yashnay boshladi.

Iso shunday degan edi, “Men – tok, sizlar esa novdasizlar” (Yuhanno 15:5). U o’z shogirdlariga shunday degan edi, “Kim Men bilan aloqani uza, novda kabi, tashlab yuboriladi va quriydi. Bunday novdalarni esa yig’ib, o’tga tashlab yondirishadi” (Yuhanno 15:6). Iso jamoatni o’stiradigan tokdir. Biz rizqimizni undan olamiz. Agar siz tokka ulanmagan bo’lsangiz, ruhiy ozuqa olmaysiz. Boshqacha qilib aytadigan bo’lsak, siz tirik emassiz. Buning oqibatida qurib qolib, halok bo’lasiz. Biroq,

agar siz tokka ulangan bo'lsangiz, boshqa novdalar bilan birga gullab-yashnaysiz. Iso shunday va'da beradi, "Agar Menda bo'lsangizlar va Men sizlarda bo'lsam, ko'p hosil berasizlar. Mensiz hech narsa qilolmaysizlar" (Yuhanno 15:5).

Iso biz Unda yashashimiz uchun o'zini qurbon qildi. Xudo erkaklar va ayollarni Uni ulug'lash va Unda abadiy shod-xurram bo'lib yurish uchun yaratdi. Ammo Odam Ato va Momo Havodan boshlab, butun insoniyat tarixi davomida insoniyat Xudoni rad etib, U bilan munosabatni buzgan va o'zlarini xarob qilishgan. Garchi biz Xudoning ulug'vorligi uchun yaratilgan bo'lsak-da, biz "hammamiz gunoh qildik va bu ulug'vorlikdan mahrum bo'ldik" (Rimliklar 3:23). Kalomda aytishicha, "gunohning evazi – o'lim" (Rimliklar 6:23), lekin Xudo bizning tovonimizni to'lash uchun sevikli O'g'lini yubordi. Iso tavba qilib unga ishonganlarning gunohlari uchun xochda qurbon bo'ldi. Xudo esa gunoh va o'lim ustidan g'alaba qozonib, uni tiriltirdi. "Iso Masih bizni barcha illatlarimizdan xalos qilish uchun O'z jonini fido qildi. U bizni poklab, O'ziga tegishli bo'lган, yaxshilik qilishga bag'ishlangan aziz bir xalq qildi" (Titus 2:14). U xalq esa jamoatdir. Agar biz Isoga, tokka ulangan bo'lsak, biz jamoatga bog'langan hisoblanamiz.

Yakshanba kuni ertalab uyqudan uyg'onishga qiynalyapsizmi? Va'zlardan zerikib, birodarlar bilan

yig'ilishlarga befarqmisiz? Mahalliy jamoatingizda susayib qoldingizmi? "O'zingizni o'zingiz tekshirib ko'ringlar. Qani, imonda turibsizlarmi?" (2-Korinfliklar 13:5). Imonda gullab-yashnashingiz uchun Masihda tirik bo'lisingiz kerak. Imonda rivojlanmayotganligingizning sababi balki siz Masihda tirik emasdirlsiz.

2. MAHALLIY JAMOATGA QO'SHILING.

Men turli yo'nalishlardagi har xil jamoatlarga borib ulg'ayganman. Otam masihiy emas edi, lekin onam jamoatga borib ulg'aygan edi, shuning uchun u qulay joyda joylashgan jamoatni tanlardi va biz onda-sonda borib turardik.

Masihiy bo'lganidan so'ng, men ham xuddi shunday yo'l tutdim. O'sha paytlari o'zimga eng ma'qul bo'lgan jamoatga borardim. Va'zlar ko'pincha ruhan ko'tarilishimni ta'minlardi va dasturlar boshqa tengdosh birodarlar bilan do'stlashish imkonini berardi. Men muntazam ravishda jamoatda bo'lardim, lekin hech qachon bittasiga bag'ishlanish haqida o'ylab ko'rмаган edim. Men iste'molchi sifatida edim.

Oxir-oqibat, cho'poni Muqaddas Kitobning kitoblarini ketma-ket tizimli ravishda va'z qiladigan jamoatga qatnay boshladim. U Muqaddas Kitobdan shunchaki o'z g'oyalari haqida gapirish yoki meni ruhan ilhomlantirish uchun foydalanmas edi. Kalomdagi parchaning asosiy g'oyasi cho'pon

aytayotgan va'zning asosiy g'oyasi edi. Shuningdek, men jamoat madaniyati haqida qiziq narsalarni payqadim. Odamlar o'zgacha tarzda birlashishga va bir-birlarini sevishga bag'ishlangan edilar. Men yakshanba kuni ertalab, yakshanba oqshomlari va chorshanba oqshomlarida jamoatga qatnay boshladim va meni muntazam ravishda o'sha odamlar kutib olishardi.

Bir kuni yakshanba oqshomida, jamoatdan keta turib cho'pon bilan xayrlashayotganimda, u shunday dedi: "Keri, siz bu jamoatga uch oydan beri qatnayapsiz. Jamoatimiz a'zosi bo'lishga qanday qaraysiz?" Jamoat a'zosiga aylanish menga qiyinchilik tug'dirmas edi. Jamoatga qo'shilish kerakligi xayolimga ham kelmagan edi. Men a'zolik darsiga qatnadim, cho'pon bilan suhbatdan o'tdim va jamoatga qo'shildim.

Ushbu jamoat a'zosiga aylanish, hayotimni o'zgartirib yubordi. Men shunchaki jamoatga bormas edim; balki men uning bir qismiga aylangan edim. Bu mening jamoatim edi. Bu odamlar menga bag'ishlangan edilar, men ham ularga bag'ishlangan edim. Ular mening aka-opalarim edilar. Bundan ham ko'proq, men, mening yoshim yoki jamiyatdagi martabamga yaqin bo'lган kichik bir guruh bilangina emas, balki jamoatning barcha a'zolari bilan munosabatlarimni yaxshilab bordim. Ko'p o'tmay mening yon daftarim keksa yoshli birodarlar, turmush qurgan juftliklar, yosh bolali

ota-onalar, turmush qurmaganlar va bevalar bilan uchrashuvlarga to'la boshladi. Ular men uchun ibodat qilishardi, menga dalda berishardi, men bilan vaqt o'tkazishardi, menga e'tibor berishardi. Ular menga oiladek edilar, hatto ulardan biri mening turmush o'rtog'imga ham aylandi!

Muqaddas Kitobda yakka masihiyalar uchun qandaydir bir toifa yo'q: "Demak, sizlar endi begona ham, kelgindi ham emassizlar, balki Xudoning aziz xalqi qatoridasiz, Uning xonadoni a'zosi bo'ldingizlar. Sizlar xuddi bir binodaysizlar. Bu binoning asosi havoriylaru payg'ambarlardir. Binoning tamal toshi esa Iso Masihning O'zidir. Bu imorat Rabbimiz Iso Masih orqali bir bo'lib, yuksalib boradi va Unga bag'ishlangan muqaddas ma'bad bo'ladi" (Efesliklar 2:19-21). Iso hamma narsani bir joyda ushlab turadigan qoya kabitdir. Havoriylar va payg'ambarlar (Muqaddas Bitiklar) poydevorlardir. Ammo imorat "bir-biriga uzviy bog'langan", "uy a'zolari" dan tashkil topgan toshlar bilan qurilgan. Jamoat esa bir -biriga sodiq kishilardan iboratdir. "Iso Masihga tegishli bo'lganingiz uchun sizlar ham bu imoratning bir qismisiz. Bu imoratni Xudoning Ruhi O'ziga maskan qilib oladi" (Efesliklar 2:22). Ushbu maskanning bir qismi bo'lishni xohlamaysizmi?

Albatta shunchaki qaysidir jamoatga qo'shilmanq. Xushxabarni to'g'ri va'z qiladigan va jamoat a'zoligini qadrlaydigan sog'lom jamoatga

qo'shiling. Havoriylar kitobidagi kabi "Xushxabarga ishonib suvga cho'mganlar" jamoatiga qo'shiling. "Ular havoriylarning ta'limotini o'rganishga, birodarlikka, Rabbimiz Isoni xotirlab, non sindirishga va ibodatga o'zlarini bag'ishladilar" (Havoriylar 2:41-42). Ushbu qism Yangi Ahdning jamoat uchun namunasidir.

Suvga cho'mish, e'tiqodga asoslangan holda, jamoatga kirish eshidir. Muqaddas Bitiklarga sadoqat, birodarlar yig'ilishi va ibodat jamoatning o'ziga xos jihatlaridir. Va Rabbiyning Kechki ziyoftati ("non sindirish") esa, bu, jamoat Masihga bo'lgan e'tiqodini va bir-biriga bo'lgan sodiqligini e'tirof etishdir. Siz mahalliy jamoatning mana shu jihatlarini izlashingiz kerak.

Agar siz Kalomiy jamoatning a'zosi bo'lsangiz, ruhiy jihatdan gullab-yashnash imkoniyatiga ega bo'lasiz. Bu fikrni Yangi Ahd muntazam ravishda masihiyarlari bir tananing a'zolari – ya'ni mahalliy jamoat sifatida yoritib beradi. Tanadan uzilgan qo'l yoki oyoq yashab qololmaydi. Shunday qilib, agar siz mahalliy jamoatning sodiq a'zosi bo'lmasangiz, masihiy sifatida ruhiy jihatdan gullab-yashnolmaysiz. Pavlus yozganidek, Masihning tanasi "har bir a'zo o'z vasifasini bajarganda mehr-muhabbat tufayli baquvvat bo'ladi" (Efesliklar 4:16). Ruhan rivojlanishni xohlaysizmi? Unda Masihning tanasi orqali quvvatlangan bo'lishingiz kerak.

Masihiy hayotimga nazar solganimda, ruhiy jihatdan o'sgan ajoyib damlarimni eslayman: o'smirlik chog'imda lagerga borganim, universitetni tugatganimdan so'ng o'tkinchi rishtalarni to'xtatganim, yoshligimda jismoniy azob-uqubatlarni yengganim va yaqin masihiy do'stlarim bilan yig'ilib ajoyib vaqt o'tkazganlarim shular jumlasidandir. O'sha vaqtlar sermahsul vaqtlar edi. Lekin mahalliy jamoatga qo'shilganim masihiy sifatida rivojlanishimni jadallashtirib yubordi. Jamoat a'zosi sifatida, menga boshqa jamoat a'zolari ruhan sog'lom bo'lishim uchun qayg'urib Xudoning kalomini o'rgatishdi, Rabbiyni nafaqat shaxsiy balki kasbiy hayotimda ham sevishga undashdi, qiyinchiliklarga e'tibor bermasdan xizmat qilishimga turtki bo'lishdi, va yana xushxabarni kengroq baham ko'rishga chaqirishdi.

Boshqa joyga ko'chib o'tganim uchun endi ilk bor qo'shilgan jamoatimning a'zosi emasman. Lekin qayerda yashashimdan qat'iy nazar, o'sha joydagi jamoatga a'zo bo'laman va orqaga nazar tashlaganimda esa, har bir qo'shilgan jamoatimda Xudoning mehribonligiga guvoh bo'laman. Mahalliy jamoatimga sodiqligim, notejisliklarga boy hayotimni, bir maromda o'sib olg'a intiluvchan hayot tarziga o'zgartirib yubordi. Har kuni birodarlarim va opa-singillarim meni sevgida mustahkamladilar, va biz birga Masihga intilib,

bir-birimizning ruhiy farovonligimiz uchun g'amxo'rlik qilardik.

Agar ruhan rivojlanmoqchi bo'lsangiz, jamoatga qo'shiling.

3. HAFTALIK YIG'ILISHLARNI BIRINCHI O'RINGA QO'YING.

So'nggi o'n besh yil ichida jamoatim a'zolarini kuzatib, ularga g'amxo'rlik qilish sharafiga muyassar bo'lib kelmoqdaman. Cho'ponim ayolining nuqtai nazaridan shuni guvohi bo'ldimki, imonsiz erlar, bo'y sunishni xohlamaydigan o'smirlar, bolalarning mashg'ulotlari va sport o'yinlari, turmush qurmaganlik (yolg'izlik), bevalik va shunga o'xshash behisob qiyinchiliklar va mashaqatlar ayollarni jamoat hayotidan uzoqlashtiradi. Ammo, jamoat bu – shunchaki kelib ketib, behudaga vaqt sarflaydigan joy emas, balki astoyidil ta'lim olishimiz kerak bo'lgan maskandir. Buning uchun haftalik yig'ilishlarimizni birinchi o'ringa qo'yishimiz kerak.

"Jamoat" so'zi aslida "yig'ilish" degan ma'noni anglatadi. Bu qo'shiq aytib birgalikda ibodat qiladigan, Xudoning kalomi ostida birga o'tirib, suvga cho'madigan va Rabbiyning Kechki ziyo fatiga rioya qiladigan erkak va ayollar yig'ilishidir. Havoriylar kitobida Isoning jamoati bularning hammasini avval boshidanoq qilib kelishganini ko'rganmiz. Biz yig'ilganimizda, Rabbiy o'zgacha

va noodatiy tarzda bizning oramizda bo'ladi (Matto 18:20). Iso bu vaqtdan bizga o'zining yuksak fazilatlarini ko'rsatib bizni o'ziga o'xshaydigan insonlar qilib shakllantirish uchun foydalanadi.

Bunday shakllanish qanday ro'y beradi?

Biz bir-birimizga e'tiborli bo'laylik, bir-birimizni mehr-muhabbatga va xayrli ishlarga chorlaylik. Ba'zi odamlarga o'xshab, yig'ilishlarimizni qoldirmaylik. Aksincha, Rabbimiz Isoning keladigan kuni yaqinlashib qolganini bilib, bir-birimizni yanada ko'proq ruhlantiraylik (Ibroniylar 10:24–25).

Yakshanba kunlari bir-birimizni sevishga va ezgu ishlar qilishga undaymiz: "Masihning kalomi bizda chuqur o'rnashib yashnayversin. Donolik bilan bir-birimizga ta'lim beraylik, nasihat qilaylik. Zaburlarni xonish qilib, madhiyalar va ruhiy qo'shiqlar bilan, chin ko'ngildan minnatdorchilik bildirib, Xudoni tarannum etaylik" (Kolosaliklar 3:16). Yangi Ahd haftalik yig'ilishlarimizning qanchalik zarurligini ifodalayotganini his qilyapsizmi? Biz doimiy ravishda birga yig'ilish orqali boshqalarga sobitlik bilan itoat qilishlariga yordam beramiz. Biz nafaqat o'zimiz uchun, balki boshqalarning imonini jonlantirish uchun kuylaymiz. Xudoning Kalomi ostida o'tirar ekanmiz, shu Kalomga birgalikda

rioya qilishga bir-birimizga yordam berishga majburmiz. Biz yig'ilganimizda, Masihning qaytishini kutar ekanmiz, Unga sodiq qolishga undaydigan jannatning tasvirimiz.

Ehtimol sizda YouTube-da ko'rishni yoki onlayn tinglashni yoqtiradigan sevimli va'zxonlaringiz bordir. Menda shunaqasi bor va men ularning va'zlarini muntazam ravishda tinglab boraman. Ular ko'pincha yuragimni va fikrimni Xudoning ishlariga qaratishimga yordam berishadi. Ammo men onlayn va'z hisobiga yashay olmayman. Agar men uyda qolib, jamoat bilan yig'ilishni e'tiborsiz qoldiradigan bo'lsam, hamdu-sanoni quvonch bilan olib boruvchi Etyenga qo'shila olmayman. Ishtiyoy bilan kuylayotgan Annaga, boshimni tik ko'tarib unga qarab ruhlana olmayman. Bir yil avval Rabbiyni tanimagan Narmani, boshqa bir opa yoki singilning qo'lidan ushlab aziz Xudoyimizga sajda qilayotganini ko'rganimda qalbim shukronalikdan jo'sh ura olmaydi.

Xuddi shunday, agar men mahalliy jamoatdagи birodarlarim va opa-singillarim bilan bir xil va'z ostida o'tirmasam, ular bilan va'zni muhokama qilib zavqlanish imkoniyatini qo'ldan boy bergen bo'laman. Men buni birgalikda hayotimizga qo'llash mas'uliyatidan bebahra qolaman. Biz birgalikda Xudoning so'zini eshitib shakllangan jamoatmiz va jannatning old qismimiz. Yakshanba

tongidagi umumiylar kechinmalarimiz bizning birgalikdagi hayotimizni shakllantiradi. Bu bizga bir-birimizga dalda berish uchun so'zlashish imkoniyatini beradi va barchamizga bir xil yo'ldan borishimizga yordam beradi. Biz bir-birimizga jonkuyarmiz. Va'z qilinayotgan so'zni birgalikda eshitish, bizni ruhlantiradi, bir-birimizga bo'lgan muhabbatimizni oshiradi va qalblarimizni yaxshilik qilishga undaydi.

Haftalik yig'ilishga ustuvor ahamiyat berish nafaqat jamoatni mustahkamlaydi, balki tashqaridan kuzatuvchilarga ham ta'sir qiladi. Agar siz Xudoning xalqi bilan yig'ilishni birinchi o'ringa qo'ymasangiz, bu imonsizlarga g'alati tuyulishi mumkinligi haqida o'ylab ko'rganmisiz? Rabbiyni bilishini xohlaydigan imonsiz turmush o'rtog'ingiz yoki quloqsiz bolalaringiz bormi? Bolalarning futbol o'yinlari yoki maktab bazmlari sizni Xudoning xalqi bilan yig'ilishingizga xalaqit beradimi? Agar siz imonsiz oilangiz tufayli jamoat yig'ilishlariga bormasdan uyda qolsangiz, oilangizga siz uchun Xudodan ko'ra ular muhimroq ekanini ko'rsatgan bo'lasiz.

Sig'inish bu qadr-qiyomat bilan bog'liq - biz eng qadrlaydigan narsamizga sig'inamiz. Agar sizning oilangiz siz uchun Xudoyingizdan ko'ra qadrliroq bo'lsa, demak siz ularga sig'inayotgan bo'lasiz. Nega ular, o'zlaridan pastda bo'lgan Xudoga sajda qilishlari kerak ekan? Aksincha, agar

siz haftaning birinchi kunidagi yig'ilishni birinchi o'ringa qo'ysangiz, siz Xudo topinishga loyiq va U sizning eng oliv qadriyatingiz ekanligini, siz Unga va uning xalqiga muhtojligingiz va U bilan rohat topishingiz haqida ishonchli tushuncha bergen bo'lasiz. Va bu sizning oilangiz topinishi mumkin bo'lgan Xudodir!

Shuning uchun, nima bo'lishiga qaramay, o'sha quloksiz bolalarni, hatto o'smirlar bo'lishsa ham, mammuniyat bilan jamoatga sudrab olib boring. Buni muhokama qilib ham o'tirmang. Sport yoki tug'ilgan kun kechalarini Xudo va Uning xalqidan ustun qo'ymasligimiz kerak. Ularga haqiqiy hayot, yagona va haqiqiy bo'lgan Xudoga asoslanganligini chin dildan fidokorligingiz bilan ko'rsating. O'smirlaringizga muqaddas hayot kechiradigan xudojo'y imonlilar namunasi ta'sirini nazardan qoldirmang. Biz universitet talabalari va yigirma yoshga to'lgan yoshlardan qarzdormiz, chunki ular jamoatimizning oldi qatorlarida o'tirib, bolalarimizga, yoshlar uchun Rabbiya ergashish nimani anglatishini ko'rsatishmoqda.

Balki sizni jamoatga borishingizga to'sqinlik qilayotgan oilangiz emas, balki turmush qurmaganligingiz sabab bo'layotgandir. Agar siz turmush qurmagan yoki beva bo'lsangiz, jamoatga yolg'iz borish qiyin bo'lishi mumkin. Ammo Havoriylar 9:36–41 dagi Tavita haqida o'ylab ko'ring. Butrus bu aziz beva ayolni o'limdan

tiriltirdi, chunki u jamoatning suyukli a'zosi edi. Pavlus turmush qurmaganlikni qanchalik qadrlagani haqida fikr yuritib ko'ring. U shunday deb yozgan: "Beva ayollar va xotini o'lgan erkaklarga shunday deyman: men kabi bo'lsalar, o'zlari uchun yaxshidir" (1-Korinfliklar 7:8). Nega? Chunki "ersiz bo'lgan ayollar va erga tegmagan qizlarning ham tashvishi Rabbimizning ishlari bilan mashg'ul bo'lishdir, ularning maqsadi ham jismonan, ham ruhan Rabbimizga bag'ishlanishdir. Erga tekkan ayol esa erini mamnun qilish niyatida dunyoviy ishlar haqida qayg'uradi" (1-Korinfliklar 7:34). Turmushga chiqmagan va beva ayollarning imonlilar xizmatiga o'zlarini butunlay baxsh etishlari jamoat uchun katta marhamatdir.

Bizning Elizabet ismli yigirma yoshga to'lgan va turmush qurmagan do'stimiz bor edi, u jamoatimizdagi boshqa ayollar va oilalar bilan yaqin edi. U missionerlikka ham qiziqardi. Biz Dubayga ko'chib o'tayotganimizni xabar qilganimizda, u o'z ixtiyori bilan ishini tashlab, biz bilan birga joylashib olgunimizga qadar bolalarimizga qarab turishni taklif qildi. Bir oy bir yilga aylandi, bu yil davomida Elizabet yangi jamoatimizga qo'shildi, yoshlar bilan ishladi, ko'plab musulmonlarga xushxabar aytди va bir qancha ayollarga dalda bo'ldi. Uning iliq tabassumi va samimiyl salomlashishi ko'pchilikda Xudoning sevgisini uyg'otdi va xayrli ishlar qilishga

undadi. Uning turmush qurmaganligi jamoatning mustahkam bo'lishiga katta hissa qo'shdi.

Turush qurmaganlikni ham, nikohni ham o'ziga xos qiyinchiliklari bor. Lekin hayot tarzingiz sizni Xudoning xalqidan uzoqlashtirishiga yo'l qo'y mang. Mahalliy jamoatingiz bilan muntazam ravishda yig'ilib, "Masihning kalomi sizda chuqur o'rashib yashashiga" qo'yib beryapsizmi (Kolosaliklar 3:16)? Mashaqqatlar sizni to'xtatishiga yo'l qo'y mang. Haftalik yig'ilishga katta ahamiyat bering va rivojlaning.

4. XIZMAT QILISHDAN KO'PROQ XUDONING KALOMI TINGLASH UCHUN O'TIRING.

Ba'zi ayollar tabiatan xizmat qilishni xush ko'rishadi. Ular ovqat tayyorlashadi, bolalarga ko'z-quloq bo'lishadi, jamoat oqsoqollariga yordam berishadi va eshik oldida odamlarni kutib olishadi. Jamoat bu aziz ayollarsiz nima ham qila olardi? Lekin ba'zida biz ayollar xizmatga shunchalik berilib ketamizki, o'tirishga vaqtimiz bo'lmaydi. Xizmat ma'naviy o'sishning bir qismidir, lekin bu masihiy sifatida o'sishning asosiy vositasi emas. Asosiy vosita Xudoning Kalomidir (Luqo 10:38-42).

Xudoning Kalomi imonlilarda Muqaddas Ruhning kuchi bilan ishlaydi, Xudo haqidagi bilimlarni beradi va bizni Uning O'g'li, Rabbimiz Iso Masihga ko'proq o'xshashimiz uchun

o'zgartiradi. Xudo O'z Kalomini bizning qalbimizga joylaydi (Yoqub 1:21) va va'z qilishdan bizga dalda berish uchun foydalanadi. Havoriy Pavlus o'zlari eshitgan so'zni Salonikaliklarga "insonlarning so'zi sifatida emas, balki siz imonlilar ichida amalda bo'lган Xudoning kalomi kabi" qabul qilganlari uchun Xudoga minnatdorchilik bildiradi (1-Salonikaliklar 2:13). Agar jamoatingiz cho'poni shunchaki sizga yoqimli bo'lган gaplarni aytish bilan chegaralanmay, balki, Kalomning mazmunini sadoqat bilan sizga e'lon qilsa, unda u sizlarga Xudoning kalomini yetkazyapti, va bu Kalom sizning yuragingizda ishlaydi. Agar gullabyashnamoqchi bo'lsangiz, muntazam ravishda Xudoning kalomi ostida bo'lishga harakat qiling.

Jamoatingizdagi voizlik va ta'lim xizmatining barcha afzalliklaridan foydalaning. Mening qadrdon do'stim Karen prezident ma'muriyatida yuqori lavozimli ishda ishlagan va u mahalliy jamoatining baxtli a'zosi ham edi. U har yakshanba kuni ertalab jamoatga sadoqat bilan borar, jamoat a'zolari bilan vaqt o'tkazar va kunning qolgan qismini uyida dam olish bilan o'tkazar edi. Ko'pincha uyi atrofida sayrga chiqqanida, boshqalarni jamoatga, tungi xizmatga borishayotganini ko'rardi. Uning bir do'sti uni borishga undamaguncha, u bu haqda o'ylamagan ham edi. Charchagan bo'lishiga qaramasdan, o'sha kuni kechqurun jamoatga qaytib bordi.

U xizmatda, bir vaqtning o'zida tushkunlikka tushgandek hamda dalda olgandek bo'lди. Bir yil davomida tungi xizmatni e'tiborsiz qoldirgani uchun, jamoatdagi oilasi bilan bo'lgan shirin va boy damlardan bebahra qolgan edi. Qo'shiq kuylash kishiga zavq bag'ishlashi bilan birga tetiklashtirar ham edi. Ular yaqin-atrofda davom etayotgan xizmat va jamoat a'zolarining ish joylari uchun ibodat qilishardi. Shuningdek, jamoatda, Injildagi haqiqatni uning yuragiga tatbiq etadigan yana bir qisqa va'z e'lon qilindi. Endi hech qachon tanam hordiq olsin deb, ruhimni ozuqadan mahrum qilmayman, deb o'yladi u. U o'sha yakshanba oqshomidagi xizmatlarga ham muntazam ravishda boradigan bo'lди.

Jamoatingizda yakshanba oqshomlarida bo'ladigan tungi xizmat bormi? Agar bor bo'lsa, borish uchun vaqt ajrating. Jamoatingizda butun jamoat uchun Muqaddas Kitob darslari o'tkaziladimi? Shunday bo'lsa, ishtirok eting. Vaqt-vaqt bilan hafta oxirida konferensiyalar yoki ayollarning dam olishlari uchun sharoit bo'ladimi? Xudoning Kalomi haqidagi bilimingizni chuqurlashtirish va U haqida ko'proq o'rghanish uchun bu vaqtlardan foydalaning.

Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, Xudoning Kalomini o'rghanish uchun har qanday imkoniyatdan foydalaning. Cho'ponlaringiz va'z qilganlaridan keyin ular bilan muloqot

qiling. Ulardan ko'proq narsa o'rganish uchun savollar so'rang. Agar siz tushunmagan yoki ma'qullamagan narsangiz bo'lsa, ularga aytинг. Va'z qilingan so'zni chuqur o'ylab uni hayotingizga tatbiq eting. Pavlus aytganlari haqiqat ekanini ko'rish uchun "Kalomni zo'r ishtiyoy bilan qabul qilgan" va "Muqaddas Bitiklarni har kuni tadqiq qilgan" Beriyaliklar kabi bo'ling (Havoriylar 17:11).

Albatta, agar siz faqat yakshanba kunlari Muqaddas Kitobni qo'lingizga olsangiz, Beriyaliklar kabi bo'lomaysiz. Mahalliy jamoatingizda ruhan o'sishingiz uchun, Muqaddas Yozuvlar ostida o'tirib, har kuni o'z vaqtingizni o'tkazing. Ikkinchи Timo'tiyga 3:16–17 da Muqaddas Kitob haqidagi keng qamrovli fikr bor:

Muqaddas bitiklarning hammasi ilohiy ilhom bilan yozilgan bo'lib, ta'lim va tanbeх berish, xatolarni tuzatish va solihlik yo'lida tarbiya berish uchun foydalidir. Bitiklardagi o'gitlar bo'yicha yashagan Xudoning quli har qanday yaxshi ish qilishga qobil bo'lib, tayyor turadi.

"Ilohiy ilhom bilan yozilgan" so'zlari bizga Muqaddas Yozuvlarning barchasi Xudo biz bilan gaplashayotganligini aytadi. Uning barcha so'zlari "foydali". Ular bizga o'rgatadi, tarbiyalaydi, tanbeх beradi va tuzatadi, maqsadi bizni "har qanday

yaxshi ish uchun to'liq, ta'minlangan" qilishdir. Bu, Muqaddas Kitob biz Rabbiyning biz uchun mo'ljallagan barcha ishlarini qilishimiz uchun to'liq ta'minlashini anglatadi.

Siz to'la-to'kis ta'minlangan bo'lishni xohlaysizmi? Savob ishlarni maromiga yetkazib bajarishni xohlaysizmi? Unday bo'lsa Muqaddas Bitiklarga murojaat qiling. Ularga har kuni chuqurroq kirib boring. Ularni yaxshilab o'ylab ko'ring. Ular sizga to'g'ri ta'limotni o'rgatsin va sizni solih hayotga tayyorlasin. Ular sizning noto'g'ri e'tiqodlaringizni tanbeh qilsinlar va gunoh qilganingizda sizni tuzatsinlar. Muqaddas Kitob haqida gap ketganda, vaqtি-vaqtি bilan Kalomdan "ro'za tutishga" o'rinn yo'q. Xudoning so'zini o'zingizga singdiring.

Va keyin, Xudoning Kalomini o'zlashtirganingizdan so'ng, boshqa imonlilar bilan yig'ilib ularga o'rgangan narsalariningizni aytib bering. Rabbiy ularga Muqaddas Bitiklardan nimani o'rgatayotganini so'rang. Mahalliy jamoatda biz Xudoning kalomini nafaqat cho'ponlardan, balki Isoni va Uning so'zini sevadigan boshqa birodar va opa-singillardan ham o'rganamiz. Birodar opa-singillaringizga hayotingizni oching va Rabbiy ularga nimani o'rgatayotganidan saboq chiqaring.

Jamoat - turli yo'llar bilan xizmat qilishimiz kerak bo'lgan maskan. Lekin xizmat qilishga sarflanadigan kuch uchun Xudoning Kalomini

tinglashni va ibodat vaqtimizda Isoning oyoqlari ostida o'tirishni birinchi o'ringa qo'yishimiz kerak. Xudoning Kalomi bizning rivojlanishimiz uchun qalblarimizni oziqlantiradi.

5. JAMOATNI OILA SIFATIDA QABUL QILIB ONA VA OPA-SINGIL BO'LING.

Turmush o'rtog'im va men uch nafar yosh bolamiz bilan Amerikadan Dubayga dunyoning oltmis xil millatidan kelgan odamlardan iborat jamoatga cho'ponlik qilish uchun ko'chib keldik. Ularning ko'pchiligi bizga o'xshamaydi, biz kabi gaplashmaydi yoki biz kabi ovqatlanmaydi. Biz turli madaniyatlarga mansub bo'lganimiz uchun, qarindoshga ham o'xshamaymiz. Ammo bizda bir xil Najotkor borligi uchun bir-birimiz bilan bo'lgan oilaviy rishtalardan bir necha bor hayratda qolganmiz.

Bu oilaviy rishta o'zini behisob yo'llar bilan namoyon qiladi. Nora jamoat a'zolari nikoh marosimlari va bolalarimizning o'rta maktab bitiruv oqshomlari uchun chiroyli tortlar pishirib bezatadi. Uesli universitetni tamomlagandan keyin biz bilan yashadi. Tess va Evald bizning uyimizga pardalar o'rnatishdi. Darlen va Joy farzandlarimizga bobo va buvidek ularni sevib, ular uchun ibodat qilishdi. Jamoatdagi oqsoqollar xo'jayinim Jonning

chinakam akalari hisoblanishadi. Hayotimda barcha yoshdagi opa-singillarim bor.

Bu bizni ajablantirmasligi kerak. Axir Iso shogirdlariga oilani va'da qilgan:

Sizlarga chinini aytayin: kim Men uchun va Xushxabar uchun uy-joyini, aka-ukalarini, opa-singillarini, ota-onasini, bolalarini yoki dalalarini tashlab ketsa, u bu dunyoning o'zidayoq yuz hissa ortiq uy-joylarga, aka-ukalarga, opa-singillarga, onalarga, bolalarga va dalalarga ega bo'ladi, shu bilan birga quvg'in ham qilinadi. Narigi dunyoda esa abadiy hayotga sazovor bo'ladi (Mark 10-29:30).

Jamoat Iso va'da qilgan aka-uka, opa-singil, onalar va bolalardan tashkil topgan. Biz Masih bilan birlashgan holda bu oilaga qabul qilinganmiz. Xudo bizning Otamiz va Masih orqali imon keltirganlar biz uchun "birodar, opa-singil va ona"dir. Qondosh qarindoshlarimiz bizning haqiqiy va abadiy oilamiz bo'lmish jamoatni ifoda etish namunasidir.

Oilalar haqidagi ajoyib narsalardan biri shundaki, biz hammamiz har xilmiz. Onalar, otalar, opa-singillar va aka-ukalarning oilada bajaradigan turli vazifasilarini bor va shu tariqa bir-birlaridan manfaatdor bo'lishadi. Otalar oilani boshqaradi, onalar esa otalar bilan birga bolalariga

ta’lim tarbiya beradi. Muqaddas Kitobda opa-singillar va aka-ukalarga nisbatan aniq buyruqlar yo’q, lekin biz opa-singillar oilaga aka-ukalarga qaraganda boshqacha, chin dildan g’amxo’rlik qilishlarini bilamiz. Mening ikki qizim va bir o’g’lim bor. Uchchalasi ham bir-biriga ishonib sirlarini aytishadi, lekin qizlarim uzoqroq va ko’proq suhbatlashishadi va o’g’limga nisbatan, bir-birlari bilan boshqacha munosabatda bo’lishadi. Xullas, ular o’g’limga opa-singillarcha g’amxo’rlik qilib maslahatlar ham berishadi. Boshqacha qilib aytadigan bo’lsak, har birimiz yetuklikka erishishimizda aka-uka va opa-singillarning yordamiga muhtojmiz. Demak, siz uchun mahalliy jamoatda gullab-yashnash, bu kimgadir qiz bo’lishni, kimgadir opa-singil, yana kimdir uchun ona bo’lishingiz kerakligini anglatadi.

Jamoat oilasidagi yetakchilar oqsoqollar yoki cho’ponlar deb ataladi. Va ushbu ikki atama bir xil ma’noni bildiradi. Biz cho’ponlardan ibrat olamiz va ular so’z xizmati orqali bizning ustimizdan hokimiyatni amalga oshirishadi. Ular “mehmondo’st, yaxshilikni sevadigan, vazmin, odil, oq ko’ngil va nafsiyi tiygan” bo’lishlari bilan masihiylik hayotini namuna qilib ko’rsatmoqdalar (Titus 1:8). Jamoatning ushbu erkaklari “haqiqatga o’rgatilgan, Xushxabar aqidalariga qat’iy rioya qiladigan inson bo’lib, [ular] boshqalarga ham sog’lom ta’limot bilan nasihat qilish, qarshilik

qiluvchilarni esa fosh eta olish” uchun mas’uldirlar (Titus 1:9). Shunday ekan ularni diqqat bilan kuzating. Ulardan savollar so’rang. Ular va ularning oilalari bilan tanishing. Ular siz uchun ibodat qilganlaridek, siz ham ular uchun ibodat qiling. Va ular sizning ustingizda boshqaruvni amalga oshirsalar, buni qabul qiling.

Oxirgi satr sizga qanday ta’sir qildi? Ushbu #MenHam davrida ba’zi ayollar hokimiyatga ega bo’lgan erkaklardan o’zlarini chetga tortadilar. Ammo cho’ponning hokimiyati birovlarning nafsoniyatga tegmaydi va shu bilan birga u boshqaruvga mukkasidan ketmaydi. Agarda, sizning cho’ponlaringiz birovlarning nafsoniyatiga tegsa yoki hokimiyatga chanqoq bo’lsa, darhol jamoatingizni tark eting va boshqa jamoatni toping. Haqiqiy cho’ponlar Muqaddas Kitob ta’limotlari va o’zlarining xulq atvorlari orqali “Xudo jamoatiga g’amxo’rlik qilishadi” (Havoriylar 20:28). Cho’ponning hokimiyati Muqaddas Bitiklardan boshlanadi va u bilan tugaydi. Uning vazifasi suruvni Xudoning kalomi bilan oziqlantirish va haqiqatni o’rgatish orqali jamoatni himoya qilishdir.

Biz Muqaddas Kitob bo'yicha barcha ta'limotlarni tekshirishimiz kerak, lekin cho'ponlarimizga shubha va tanqidiy ruh bilan murojaat qilmasligimiz kerak. Aslida, Ibroniylar 13:17 da buning butunlay aksi aytilgan:

Jamoatdagi yo'l boshchilaringizga qulqoq solinglar, aytganlarini qilinglar. Axir, ular imon yo'lida sizlarga posbonlik qiladilar, Xudoning oldida sizlar uchun hisobot beradilar. Ularga itoat qilsangiz, ular o'z ishini xursandchilik bilan bajaradilar, bo'lmasa, o'lgan kunidan qiladilar. Bundan sizga nima foyda?!

Oqsoqollar hokimiyatiga xursandchilik bilan bo'y sunsangiz, bu sizning foydangizga bo'ladi. Shunda siz gullab-yashnaysiz va oqsoqollaringiz sizga va jamoatga mamnuniyat bilan xizmat qilishadi.

Jamoatdagi boshqa ayollar bilan uyuştirilgan o'zaro munosabatlar ham sizning foydangizga xizmat qiladi. Umr yo'ldoshim bilan bo'lgan munosabatimdan tashqari, men uchun eng qadrli bo'lgan jamoat-oila munosabatlari mening qizlarim, opa-singillarim va onalarim bo'lgan ayollar bilandir. Umr yo'ldoshim men uchun ajoyib cho'pon, lekin Masihdagi opa-singillarim turmush o'rtog'im qilolmaydigan boshqacha yo'llar bilan menga dalda berishadi. Qizlarimda bitlar paydo bo'lganida, jamoatdagi uchta opa-singillar menga maslahat berishdi, ovqat olib kelishdi va men soatlab qizlarimning sochlarini taraganimda men uchun ibodat qilishdi. Mening bir necha opa-singillarim,

xuddi men ularga o'z gunohlarim haqida ochiqchasiga aytganimdek ular ham men bilan o'z gunohlari haqida ochiqchasiga bo'lishishadi va bu esa bizda, bir-birimizga nisbatan javobgarlik hissini uyg'otadi. Xudoga ko'proq ishongan holda sinovlarga bardosh berib va ulardan chiqib ketish yo'lida opa-singillarga yordam berish qanday zavqli edi. (Tur mush qurgan ayollar, ayniqsa siz, dugonalaringizni o'z holiga tashlab qo'y mang!)

Pavlus jamoatlarimizdagi ruhiy onalarimiz bo'l mish keksa ayollarga alohida mas'uliyat yuklaydi. U Titusga ularni "sharafli hayot kechirishga, g'iybat qilmaslikka yoki mayxo'rlikka ruju qo'ymasliklariga" o'rgatishni uqtiradi (2:3). Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, dunyoviy va o'yin-kulgiga berilib ketgan birovlarning ishiga burun suqadigan odam bo'l mang. Undan ko'ra, yoshi katta ayollar "har qanday xayrli ishda ibrat ko'rsatib, kelinlarga pand-nasihat qilishni, ularga o'z erlari va farzandlarini sevishni, vazmin, iffatli, ro'zg'orga jonkuyar, mehribon, erlariga bo'ysunadigan bo'lishni o'rgatsinlar. Shunda Xudo kalomi yomonlanmaydi" (3-5-oyatlar). Ushbu oyatlar, faqatgina, keksa ayollarning jamoatdagi yosh ayollar bilan do'stlashishi haqida emas. Ularning asosiy maqsadi yosh ayollarga sog'liqqa foydali ovqatlarni pishirish

va quloqsiz bolalarni tarbiyalashni o'rgatish bo'lmasa-da, bularni ham o'z ichiga olishi mumkin. Titus 2:3-5-oyatlari hayotimizni bir-birimiz bilan baham ko'rishimiz: keksa ayollar yosh ayollar bilan vaqt o'tkazishi, ularni Xudoning ulug'vorligi uchun yashash maqsadi bilan tarbiyalashi haqidadir.

Jamoatimdag'i boshqa ayollar bilan mazmunli munosabatlar o'rnatadigan ayollar haqida o'ylaganimda, ko'pincha do'stim Kerri esimga tushadi. Kerri turmush o'rtog'i bilan ajrashish paytida imonga kelgan. Uning ikkita yosh farzandi bor edi va jamoatimdag'i Bronvin ismli imonli opa Kerriga hayoti haqida aytib bermagunicha, chinakam masihiyalar bilan uchrashmagan edi. Bronvin Kerriga masihiyayol va ona bo'lish nimani anglatishini ko'rsatib berdi. U muntazam ravishda Kerrini o'z uyiga taklif qilib, qayg'uga botganlarga g'amxo'rlik qiluvchi Xudo tomon yetaklardi.

Keyinroq Kerrining hayotiga Kim ham kirib keldi. Kim Kerrining ko'plab amaliy ehtiyojlarini bolalariga g'amxo'rlik qilish, moliyaviy majburiyatlarni bajarishda yordam berish, u azob chekayotganida unga Muqaddas Kitobni o'qish, o'zini Xudoga ishonib topshirishni o'rganishda yordam berish orqali qondirdi. Kerri masihiycha hayotni u bilan birga yashagan jamoatidagi opa-singillar orqali

o'rgandi. Yillar o'tib, Kerri o'sha sevgini va ruhiy saboqlarni jamoatimdag'i boshqa ikkita ayolga: Jeniya va Krinaga ham ko'rsatdi.

Xuddi shunday, ellik yoshlari atrofidagi do'stim Ranjini ham uzoq vaqtdan beri masihiy edi. U kuchli xizmatchi va xushxabarchi ham edi. Har doim masihiylik amallari bilan shug'ullangan Ranjini, mahalliy jamoat masihiycha hayotda markaziy o'rinni egallashini tushunib yetdi. Hozirda u jamoatimizdag'i ayollarga muntazam ravishda ta'lim berib ularni xizmatga tayyorlaydi. U imonsizlarga xushxabarni yetkazishda davom etmoqda, va shu bilan birga Muqaddas Kitob yoki masihiycha yashash haqidagi kitob o'qish uchun jamoatimizdag'i boshqa ayollar bilan muntazam uchrashib turadi. Rejalashtirilgan shogird tayyorlash yig'ilishlaridan tashqari, munosabatlardan tortib Muqaddas Kalom oyatlarini talqini haqida maslahat kerak bo'lganida hamma shu ayolni qidira boshlaydi. Ko'plab yosh ayollar uni Titus-2 ustozи deb hisoblashadi.

Pavlus yoshi katta yoki yosh ayollar uchun aniq yosh chegaralarini bermaydi. Agar siz mahalliy jamoatingizda gullab-yashnamoqchi bo'lsangiz, ikkalasi ham bo'lishga intiling. Sizda shunday munosabatlar tarmog'i bo'lsin-ki, ba'zilarni siz shogirdlikka tayyorlang, boshqalar esa sizga ustozlik qilsin. Jamoatingizda Ranjiniyga o'xshagan ayollar bo'lsa, ulardan, yolg'iz ayol

sifatida hayotdan qanday mamnun bo'lishni, yoki turmush qurgan bo'lsangiz, turmush o'rtog'ingizni qanday sevishni so'rab bilib oling. Jamoatingizdagি Kerriga o'xshagan ayollarga yordam qo'lini cho'zing va ularga Muqaddas Yozuvlar yordamida qanday qilib fikrlarini tubdan o'zgartirishlarini o'rgating. Havoriy Pavlusning Titusga yuborgan maktubining 2-bobiga tayansangiz, munosabatlarining quvonchga to'ladi va sizni abadiy hayotda Masihning kelini bo'lishga tayyorlaydi.²

Jamoatda bir-birimizni chin yurakdan birodarlik sevgisi bilan sevgan holda (1-Butrus 1:22), bir Ruhda, "yakdillik bilan hamfikr bo'lib" - Masihning fikriga ega bo'lishimiz kerak (Filippiliklar 2:2). Jamoat - bu Iso Masihda oqsoqollar, onalar, aka-uka va opa-singillar bilan jipslashgan oila. Siz jamoatingizga dam olish kunlari tez-tez boradigan klubga qaraganday qaraysizmi yoki oilaviy munosabatlar bilan mustahkam ildiz otgan ona, opa-singil va qizmisiz? Mana shunaqa oila sizga ruhan o'sishingizda yordam beradi.

6. KELISHMOVCHILIK VA XAFAGARCHILIK KUCHAYIB KETISHIGA YO'L QO'YMANG.

Har bir oilada kelishmovchiliklar bo'lib turadi. Agar jamoatda yetarlicha muloqot qilib tursak, ba'zida bilib bilmay bir-birimizni xafa qilib qo'yishimiz ham mumkin. Ammo

kelishmovchiliklarning kuchayishiga yo'l qo'ysak, jamoatda rivojlanolmaymiz.

Mojarolar haqida gap ketganida, birinchi navbatda ko'z oldimizda Isroil shohi Dovud gavdalanadi. Ikkinci Shohlar kitobida biz Dovudning oilasi kelishmovchilik va xafagarchiliklar tufayli parchalanib ketganiga guvoh bo'lamiz. Dovudning o'g'illaridan biri o'gay singlisini (Dovudning qizini) zo'r lab qo'ygan. Yana boshqa bir aka singlisining qasosini olish uchun, zo'r lagan akani o'ldirgan. O'sha qasoskor o'g'il keyinroq, taxtni egallab olishga harakat qiladi va bir muddat Dovudni surgun qiladi. Bular Dovudning oilasidagi muammolarning bir qismi edi xolos.

Dovud oila birligi quvonchli onlarni, mojaro va tarqoqlik esa qayg'uni keltirib chiqarishini bilar edi. Dovudning Zabur 132-dagi faryodi ortida uning oilaviy mojarosi turgani aniq:

Naqadar yaxshidir, yoqimlidir
Birodarlar birga ahil yashasalar.
Ahillik Horunning boshiga surtilgan,
Soqoligacha oqib tushgan qimmatbaho moydir,
Kiyimlari yoqasidan oqib tushgan moy kabidir.
Sion tog'lariga keladigan baraka
Xermon tog'idagi mo'l shabnamga o'xshaydi.
Siondan Egamiz O'z barakasini va abadiy
hayotni beradi.

Uch misradan iborat sanoda Dovud birodarlar o'rtasidagi birlikni ulug'laydi va uni abadiy hayot ne'matiga olib boradigan suvga qiyoslaydi. Mana bu endi gullab-yashnashdir!

Birlikda baraka borligi uchun, Pavlus jamoatlarga raqobat, nizolar va guruhlarga bo'linishlardan qochishni qayta-qayta uqtiradi. U, bu birlikni buzuvchilarni tana ishlari deb ataydi va ularni faxsh-zino, butparastlik, folbinligu issiqsovuuq qilishlar kabi gunohlar bilan birga sanab o'tadi (Galatiyaliklar 5:19–21). U shunday deb ogohlantiradi: "Ehtiyot bo'linglar! Hadeb tishlab, g'ajishaver manglar, bo'lmasa oxiri bir-biringizni yeb bitirasiz!" (Galatiyaliklar 5:15).

Boshqa bir joyda Pavlus shunday deb tavsiya beradi: "Hech bir ishni xudbin niyatda qilmang, shuhratparast bo'lmang, aksincha, kamtarlik bilan boshqalarni o'zingizdan yuqori deb biling. Faqat o'zingizning emas, balki boshqalarning ham manfaatini ko'zlang" (Filippiliklar 2:3–4). Raqobat, hasad, kelishmovchilik va bo'linishlar jamoat ishlariga to'g'ri kelmaydi. Chunki bunday ishlar tarqalib va ko'payib ketishi mumkin. Lekin biz Boshimiz bo'lmish Iso bilan bir tanmiz. Bir-birimizdagi turli in'omlarimizni maqtashimiz va boshqalar gullab-yashnaganida quvonishimiz kerak. Bir-birimizni tinglashimiz, haqiqatni gapirishimiz va sevgi bilan bir-birimizni imonda mustahkamlashimiz kerak.

Biz uchun xochgacha borgan Isoga o'xshashga harakat qilishimiz kerak.

Jamoatingizda sizni noto'g'ri yo'lidan qaytaradigan ayol bormi? Ehtimol, u sizga juda to'g'ridan-to'g'ri gapirar va bu bilan sizni noqulay ahvolga solib qo'yishi mumkin. Ehtimol, u ochiqchasiga gapirmas va siz uning tanqidlari nimani anglatishini hech qachon bilmassiz. O'zingizni doimo boshqa bir ayol bilan taqqoslaysizmi? Uning kiyinish uslubiga, qobiliyatlariga, in'omlariga, oilasiga, bolalariga yoki Instagram profiliga hasad qilasizmi? Uning hayotiga nazar tashlaganiningizda, o'zingizga nimadir yetishmayotgandek bo'ladimi? Jamoatingizda siz juda qattiqko'l deb bilgan oqsoqol bormi? Aytilgan yoki aytilmagan gaplar sizni xafa qilganmi? Opa-singillarim, xafagarchiliklar kuchayib ketishiga yo'l qo'y mang. Gunohlarimizni Rabbiyning va bir-birimizning oldimizda tan olishimiz kerak. Birodarlar va opa-singillar qanday xafa qilganliklarini bilmasalar ham, ular bilan yarashishga harakat qilishimiz kerak.

Muqaddas Kitob najot tarixida Xudo qudratli tarzda foydalangan ko'plab kamtar va xudojo'y ayollarning imoniga alohida urg'u beradi. Lekin Muqaddas Kitobda imonlari bilan emas, balki guruhlarga bo'linishlari bilan mashhur bo'lgan ikki ayolning ismlari ham tilga olinadi. Filippiliklarga 4:2

da Pavlus bu ayollarga shunday murojaat qilgan: “Evodiya va Sintixa, sizlardan iltimos qilaman, Rabbimiz haqi yakdil bo’linglar”. Havoriy Pavlus omma oldida sizga murojaat qilishini tasavvur qila olasizmi? Axir, bu maktub butun jamoatga qaratilganku (Filippiliklar 1:1)!

Opa-singillarim, agar sizda kelishmovchilik yoki boshqalar bilan munosabatlaringizda qiyinchlik bo’lsa, uni tuzatish uchun qo’lingizdan kelganini qiling. Boshqa birovning qalbini o’zgartira olmasligingiz mumkin, lekin Muqaddas Ruhning kuchi bilan o’z qalbingizda ishlay olasiz.

Har qanday gina-kudurat, qahru g’azab, janjalkashlik, g’iybatchilikni hamda boshqa har xil yomonliklarni o’zingizdan soqit qilinglar. Bir-biringizga nisbatan ko’ngilchan va mehr-shafqatli bo’linglar. Xudo sizlarni Masih orqali kechirganday, sizlar ham bir-biringizni kechiringlar (Efesliklar 4:31-32).

G’azabingizni chetga qo’yib, boshqalarni kechirsangiz, ruhan o’sasiz.

7. EHTIYOJLARNI IZLAB, ULARNI QONDIRING.

Agar siz murabbiydan ishingizda qanday qilib muvaffaqiyatga qozonishini so’rasangiz, u sizga kuchli tomoningiz ustida ko’proq ishlashni, zaif tomonlaringizni yo’q qilishni va eng avvalo,

his-tuyg'ularingizga qulq solishni maslahat beradi. Ko'p masihiyalar jamoatdagi ruhiy in'omlar haqida xuddi shunday fikrda.

Ruhiy in'om ro'yxatlarini Internetda osongina topish mumkin. Ularni o'qisangiz, psixologik shaxsiyat testlariga o'xshaydi. Ammo, Enneagram testi siz qaysi raqamli shaxsiyatga ega ekanligingizni aytib bersa, masalan 2 yoki 5, bu sizga in'omingiz nimaligi ko'rsatadi: siz ojizlarga mehribonlik qilishingiz yoki mehmondo'stlik ko'rsatishingiz, va yoki Kalomda sanab o'tilgan boshqa o'nlab ruhiy in'omlardan biri bilan mashg'ul bo'lishingiz keraklinigi ko'rsatib beradi. Bu sanab o'tganlarimiz ortidagi fikr shuki, siz yuragingizga yaqin bo'lган, sizning qiziqishlaringizga eng mos keladigan, sizga eng katta ruhiy qoniqish beradigan xizmatni topa olasiz. Ha aytgancha, bir veb sahifa shunaqa e'lon ko'rib qoldim: "Xudo tomonidan berilgan ruhiy in'omlaringizni kashf qilish va qo'llash, masihiycha hayotningizda va xizmatingizda minimal umidsizlik bilan maksimal darajada qoniqishni his qilishingizga imkon beradi."³

Voy-buy! "Minimal umidsizlik bilan maksimal qoniqishni his qilishga erishish." Buni kim ham xohlamaydi deysiz? Bunga o'xshagan maslahatlarning muammoli tomoni, bularning barchasi biz haqimizda aytiganidir! Ushbu holat masihiycha hayotni va xizmatni kishining umid va orzularini ro'yobga chiqaruvchi vositaga

aylantiradi. Ammo bunday o'ziga bino qo'yish, bizni va atrofimizdagilarni baxtsiz qiladi. Maqsadim o'zim bo'lsam, yo'limga to'sqinlik qilayotgan insonlarga Xudo yordam bersin.

Haqiqat shuki, o'zimizni tiyib, diqqatimizni Masihning tamoyiliga qaratsak, oxir-oqibat ishni uddasidan chiqqan bo'lamiz. Muqaddas Ruh o'zimiz uchun emas, balki jamoatdagi boshqalarga xizmat qilib, Xudoning nomini ulug'lashimiz uchun bizga turli in'omlar beradi.

Xudo sizlarga bergan in'omlar bilan bir-biringizga xizmat qilinglar. Xudoning bu boy ehsonlaridan oqilona foydalaninglar. . . Toki Iso Masih orqali Xudo har bir ishingizda va har bir so'zingizda ulug'lansin (1-Butrus 4:10-11).

Pavlus bu fikrni ham aytib o'tadi: "Umumiy manfaat uchun Muqaddas Ruh har kimda o'ziga xos ravishda namoyon bo'ladi" (1-Korinfliklar 12:7). Jamoatdagi e'tiborimizni o'zimizning muayyan in'omlarimizni aniqlab olishga emas, balki jamoatning ehtiyojlariga oydinlik kiritishga qaratishimiz kerak. Masihdagi birodar va opa-singillarimga qanday xizmat qilishim mumkin? Umumiy manfaat uchun qo'limdan nima keladi? Jamoat, in'omlarimizni qanday qilib ommaga namoyon etishi mumkinligini kutmasligimiz kerak.

Biz qanday qilib o'z in'omlarimizdan jamoat ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanishimiz mumkinligini so'rashimiz kerak.⁴

Hali turmushga chiqmagan va chamasi yigirma yoshlari atrofida bo'lganimda, mendan jamoat bolalar bog'chasida xizmat qilishimni so'rashdi. Kunimni Capitol Hill Kongress qo'mitasida ishslash bilan o'tkazgan kishi sifatida yosh bolalarga xizmat ko'rsatish menga mutlaqo mos kelmas edi. Menda iqtidor yo'q edi, hattoki taglikni almashtirishni ham bilmasdim. Menda rad etish uchun asosli sabab yo'qligini bilganim uchun ro'yxatga kiritilishga rozi bo'ldim. Bu men o'ylagandek unchalik qiyin bo'lindi va bolalar bilan boshqotirma o'ynaganlarim, bitta bolakay katta, sariq rangli o'rdakni minib mazza qilgani xotiramda abadiy muhrlanib qoldi! Bu vaqt mobaynida men shunchaki bir nechta yosh bolalarga g'amxo'rlik qilmadim; ota-onalarga jamoat yig'ilishidan chalg'imasdan zavqlanishlariga imkon berdim. Keyinchalik, uchta farzandni katta qilayotganimda, xuddi shunday yo'llar bilan menga yordam bergen boshqalardan judayam minnatdorman. Bir yarim soatlik uzluksiz, birgalikda ibodat qilish, chaqalog'i yoki yosh bolasi bor ona uchun bebahो vaqtidir.

Yana bir narsa: biz o'zimizni jamoatdagи boshqa ayollar bilan taqqoslamasligimiz kerak. Har birimiz turli xil in'om va qobiliyatlarga egamiz. Har birimiz hayotda turli darajada

fikrlaymiz. Balki ba'zilarimiz boshqa birovlarimizga qaraganda keng qamrovli qobiliyatga ega emasdirmiz. Hayotning boshqa pallasida bo'lganlar bilan o'z in'omlaringizni yoki xizmatningizni solishtirmang. Undan ko'ra, Rabbimiz, ayni shu damda, sizdan kutayotgan ishni bajarishga e'tiboringizni qarating.

Umumiy manfaat uchun boshqalarga xizmat qilish har doim ham, hammaga birday xush yoqmaydi. Ammo, oxir-oqibat, o'zimizdan kechib, boshqalarning ehtiyojlarini qondirish bizga hayot baxsh etadi. Ehtiyojlarni fahmlab, ularni qondirar ekanmiz, biz gullab-yashnaymiz.

8. JAMOATNI UYGA OLIB KELING.

Havoriylar kitobining 2-bobidagi ilk jamoatlar faqatgina yakshanba kuni ertalab yig'ilmagan. Ular "har kuni" birga non sindirib, birodarlikka o'zlarini bag'ishlagan edilar (Havoriylar 2:46). Ular birgalikda hayot kechirar edilar. Jamoat o'sib, tarqalib borar ekan, bu tamoyilni havoriylar faoliyatida ko'rib guvohi bo'lamiz. Imonlilarning hayotlari bir-birlarinikiga bog'langan edi. "Imonga kelganlar yakdil va hamjihat edilar. . . bor mol-mulklarini umumiy deb bilishardi" (Havoriylar 4:32). Dastlabki jamoat a'zolari mehmondo'st bo'lishgan, bir-birlariga so'z orqali dalda berishgan, kambag'allarga

g’amxo’rlik qilishgan, elchilik xizmatidagilarni qo’llab-quvvatlab, xushxabarni tarqatishgan. Ular gullab-yashnashayotgan edilar!

Isoga shogird bo’lishning o’ziga xosligi shundaki, U bizni qanday sevgan bo’lsa, biz ham bir-birimizni shunday sevamiz (Yuhanno 13:34–35). Bunday sevgini haftada bir kun ko’rishib yuzaga chiqarib bo’lmaydi, bu undanda ko’proq narsani talab qiladi. Mahalliy jamoatingizda gullab-yashnashning yo’li – bu jamoat hayoti bilan hayotingizni bog’lashdir. Albatta, bu esa, yakshanba kuni doimiy ravishda jamoatga borishdan boshlanadi. Vaholanki, biz boshqalar uchun yuragimiz va uylarimizdan joy ajratib, hafta davomida birodarlikni davom ettiramiz.

Keyt uyda ta’lim berayotgan uchta yosh farzandning onasi va u to’rtinchi farzandiga homilador. U uyida kattalarga mo’ljallangan kichik bir guruhini qabul qiladi, boshqa bir kechada esa, kichik bir o’smir qizlar guruhini boshqaradi va hafta davomida ba’zi ayollarni uyiga taklif qilib, odatiy uy ishlari bajaradi va bu orqali ham ayollarga o’z hayotidan ta’lim beradi.

Imonsiz kishiga turmushga chiqqan Naomi, jamoatdagi ayollarni muntazam ravishda boshpana bilan ta’minlaydi, ayollarga Muqaddas Kitobdan dars beradi va ko’p vaqtini yosh ayollarga ustozlik qilishga sarflaydi.

Tala kelib chiqishi musulmon bo'lgan Misrlik talaba. Oilasi uni tashlab ketgan bo'lsa ham, u jamoatda yangi oila topdi. U jamoat a'zolari bilan yashaydi, boshqalarga chin dildan dalda beradi va atrofida uni qo'llab-quvvatlovchi opa-singillari, aka-ukalari bor.

Adiyam beva ayol bo'lib, dunyoning turli burchaklarida yashovchi uchta voyaga yetgan farzandi bor. U odamlarni mashinasida jamoatga olib boradi, mehmondorlik uchun hamisha eshigi ochiq bo'ladi va do'stlari va qo'shnilariga xushxabar aytish uchun jamoatdag'i boshqalar bilan birgalikda faoliyat olib boradi.

Meri turmushga chiqmagan, qirq yoshlari atrofidagi, administrator lavozimida ishlaydigan ayol. U bolaligida qattiq zo'ravonlikka duchor bo'lib, yuk mashinasi kabinasida yashaygan giyohvand ayol bo'lgan. Endi u o'zining ijodiy san'ati va oshpazligi bilan boshqalarni marhamatlaydi, jamoati tomonidan elchilik ishiga yuborilganlar uchun ibodat qiladi va barcha yoshdag'i o'smirlar va ayollarga maslahat beradi.

Ushbu besh ayol o'zлari bilan jamoatni uylariga olib kelishadi. Ularning hayotida Xudoning xalqi markaziy o'rinni egallaydi. Ularning barchasi hayotning turli bosqichlarida. Ularning turlicha qobiliyatları va turlicha kurashlari bor. Ularning sinovlari haqiqiydir. Lekin Iso bu ayollarni O'ziga chaqirgan va U ularni O'zining jamoatiga chaqirgan,

shuning uchun, ular hatto o‘z kurashlarida bo‘lishsa ham jamoatda gullab-yashnamoqda. Jamoatni uyingizga olib keling, Masih sizni sevganidek, siz ham boshqalarni seving va gullab-yashnang.

RUHAN O’SISH - BU JAMOATCHILIK LOYIHASI.

Kitob do‘konlari ayollarga yordam berishga mo‘ljallangan kitoblar bilan liq to‘la. Siz u yerda o‘z-o‘zini kuchaytirish, yaxshi munosabatlar uchun “o‘nta qoida” yoki yaxshi hayot uchun “o‘n ikki qadam” kabi qo’llanmalarni topishingiz mumkin. Sport bilan shug’ullaning, to‘g’ri ovqatlaning, ko‘k choy iching, har kuni o‘ziz yoqtirgan ish bilan mashg’ul bo‘ling, yuzingizni yuving: bu tavsiyalarning har biri sizda umumiylar farovonlik tuyg‘usini oshirishi kerak. Ammo opa-singillarim, biz chinakam gullab-yashnashimiz uchun hayotimizni Iso va mahalliy jamoat atrofida qurishimiz kerak.

Agar xushxabarga ishongan bo‘lsangiz, siz Masihning go‘zal kelinining bir qismisiz. Bir kuni bu kelin kuyoviga ulug‘vorlik bilan bezatilgan, “qimmatbaho javohirday, billur kabi musaffo bo‘lgan yashma toshiday” porlab taqdim etiladi (Vahiy 21:11). Iso kelinini judayam qadrlagani uchun o‘zini qurban qildi. Shunday qilib, keling, jamoatni qadrlaylik va “muborak umidimiz, buyuk Xudoyimiz va Najotkorimiz Iso Masihning ulug‘vorligining zohir bo‘lishini” kutib o‘zimizni tayyorlaylik (Titus 2:13).

Tavsiya etilgan manbalar

Erin Viler, Yaxshi qism: Har bir ayol uchun jamoat ta'limoti (Ross-Shire, Shotlandiya: Masihiycha Diqqat, 2021) [Erin Wheeler, The Good Portion: The Doctrine of the Church for Every Woman (Ross-Shire, Scotland: Christian Focus, 2021)].

Izohlar

1. Ushbu kitobda yozilgan boshqa shaxslarga taalluqli shaxsiy hikoyalar ularning ruxsati bilan chop etilgan. Ularning shaxsi sir saqlanishi uchun odatda ismlar o'zgartirilgan holda berilgan.
2. Ustoz-shogirdlik munosabatlarini qanday qilib boshlashga doir ko'proq maslahatlar uchun Jamoatga doir savollar to'plamidagi Garret Kellning Menga ustozlik qiladigan odamni qanday topsam bo'ladi? deb nomlangan maqolasiga murojaat qilishingiz mumkin (Wheaton, IL: Crossway, 2021).
3. "Ruhiy in'omlar so'rvnomasiga xush kelibsiz," Jamoa Xizmati vebsayti, 2020-yil 27-yanvarda tashrif buyurilgan: <https://gifts.churchgrowth.org/spiritual-gifts-survey/>.
4. Jamoatingizga qanday qilib sadoqat bilan xizmat qilish hamda in'omlar va xizmatlar haqida qanday mulohaza qilishga doir ko'proq ma'lumot olish uchun Jamoatga doir savollar to'plamidagi Mettyu Emadining Jamoatimda qanday xizmat qilishim mumkin? deb nomlangan maqolasiga murojaat qilishingiz mumkin (Wheaton, IL: Crossway, 2021).

Muqaddas Kitobga Iqtiboslar

<i>Zabur</i>		<i>Rimliklar</i>
132 – 45		3:23 – 19
		6:23 – 19
<i>Matto</i>		
18:20 – 25-26		<i>1 Korinfliklar</i>
		7:8 – 30
<i>Mark</i>		7:34 – 30
10:29-30 – 37		12:7 – 50
		12:14-20 – 11
<i>Luqo</i>		
10:38-42 – 31		<i>2 Korinfliklar</i>
		13:5 – 20
<i>Yuhanno</i>		
13:34-35 – 53		<i>Galatiyaliklar</i>
15:5 – 18-19		5:15 – 46
15:6 – 18		5:19-21 – 46
<i>Havoriyilar</i>		
2:41-42 – 23		<i>Efesliklar</i>
2:46 – 52		2:19-21 – 22
4:32 – 52		2:22 – 22
9:36-41 – 29		3:10 – 15
17:11 – 34		4:16 – 23
20:28 – 39		4:31-32 – 48

<i>Filippiliklar</i>	<i>Ibroniylar</i>
1:1 – 48	10:24-25 – 26
2:2 – 44	13:17 – 39-40
2:3-4 – 46	
4:2 – 47-48	<i>Yoqub</i>
	1:21 – 31-32
<i>Kolosaliklar</i>	
3:16 – 26, 31	<i>1Butrus</i>
	1:22 – 44
<i>1Salonikaliklar</i>	4:10-11 – 50
2:13 – 32	
	<i>Vahiy</i>
2 Timo'tiy	21:11 – 55
3:16-17 – 34	
<i>Titus</i>	
1:8 – 38	
1:9 – 38-39	
2 – 41-44	
2:3 – 41	
2:3-5 – 41-42	
2:13 – 55	
2:14 – 19	

IX

9 Belgilar

SOG'LOM JAMOATLAR QURISH

Sizning Jamoatingiz Sog'lommi?

9Marks (9Belgilar) xizmati Xudoning ulug'vorligini sog'lom jamoatlar orqali xalqlarga namoyon etish uchun jamoat yetakchilarini Kalomiy qarash va amaliy resurslar bilan qurollantirish maqsadida faoliyat ko'rsatadi.

Shu maqsadda biz jamoatlarga ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan to'qqizta sog'lom jamoat belgisida o'sishiga yordam berishni xohlaymiz:

1. Exposition va'z
2. Xushxabar ta'l'imoto (doktrinasi)
3. Yuqoridaн tug'ilish va xushxabarchilikka doir Kalomiy tushuncha
4. Kalomga mos jamoat a'zoligi
5. Kalomga mos jamoatdagи tartib-intizom
6. Shogirdlik va o'sish borasida Kalomiy qarash
7. Kalomga mos jamoat yetakchiligi
8. Ibodat amaliyotiga doir Kalomiy tushuncha
9. Elchilik xizmatiga doir Kalomiy tushuncha

9Marks (9Belgilar)da biz maqolalar, kitoblar, kitoblarga taqrizlar va onlayn jurnallar yozamiz. Biz jamoatlar Xudoning ulug'vorligini namoyon etishlari uchun ularni qurollantirish maqsadida konferensiyalarga mezbonlik qilamiz, suhbatlar yozib olamiz va boshqa har xil resurslarni tayyorlaymiz.

40dan ortiq tillardagi kontent uchun bizning veb sahifamizga tashrif buyuring va bizning bepul onlayn jurnalimizni qabul qilish uchun ro'yxatdan o'ting. Bizning boshqa tillardagi veb sahifalarimizning to'liq ro'yxatini quyidagi havola orqali ko'rishingiz mumkin:

<https://www.9marks.org/about/international-efforts/>

Ayollar masihiy sifatida ruhan o'sishlari qanday bo'ladi? Ushbu qisqa kitobchada Keri Folmar ayollarga mahalliy jamoat kontekstida to'liq kirishib ketishga yordam beradigan sakkizta asosiy tamoyillarni taqdim etadi. Jamoat a'zoligi va jamoat hayotida ishtirok etishdagi ustuvorlik, samarali ustoz-shogirdlik munosabatlariga sarmoya kiritish va konflikt yoki xafachilik "yiringlab" ketishiga yo'l qoymaslik tamoyillari mana shular jumlasidan.

Ayollar boshqa imonlilar bilan kalomga mos jamoalarni izlar ekanlar, Xudo inoyatining to'liqligini qanday his etishga doir juda foydali g'oyalarga ega bo'lishadi.

Jamoatga doir Savollar to'plami bu jamoat hayotiga doir ko'p uchraydigan savollarga javob berish orqali o'rtamiyona masihiyarlarni sog'lom va hamma uchun ochiq bo'lgan kalomiy ta'lilot bilan ta'minlashga intiladi. Har bir qism sog'lom jamoat amaliyotini va unga bag'ishlanishni rivojlantirish maqsadida kalomiy javoblar va amaliy xulosalar taqdim etadi.

Keri Folmar Dubay Birlashgan masihiy jamoatinning a'zosidir, uning eri oxirgi o'n besh yil davomida ushbu jamoatning katta cho'poni sifatida xizmat qilib kelmoqda. Keri Folmarning uchta farzandi bor va u "Yaxshi bo'lak: Har bir ayol uchun Muqaddas Kitob Ta'liloti" [The Good Portion: The Doctrine of Scripture for Every Woman] va "Kalomdan Zavqlanish" deb nomlangan Muqaddas Kitobni o'rGANISH to'plami [Delighting in the Word Bible study series] ning muallifidir.